

---

## Rishtonda qarzdor farzandlari uchun 12.250 dollar miqdorida alimentni oldindan to'ladi

Bolalarning sog'lom va barkamol avlod sifatida voyaga yetishida ota-onalar mas'ulligiga va yordamga muhtoj bolalarini ijtimoiy ta'minlashga majbur ekanligi qonunlarimizda belgilab qo'yilgan.

Majburiy ijro byurosining Rishton tuman bo'limi tomonidan fuqarolik ishlari bo'yicha Farg'ona tumanlararo sudining 21.02.2019 yildagi qarzdor U.D.dan undiruvchi U.R. foydasiga ikki nafar farzandlarining moddiy ta'minoti uchun har oyda topgan daromadining 1/3 qismi miqdorida aliment undirish haqidagi ijro hujjati bo'yicha majburiy ijro harakatlari olib borilgan.

Ijro harakatlari davomida qarzdorga, uning huquq va majburiyatlarini tushuntirib kelinganligi sababli, qarzdor U.D. belgilangan aliment pullarini farzandlari uchun ixtiyoriy ravishda oyma-oy to'liq to'lab kelgan.

15.02.2023 yil kuni qarzdor U.D. undiruvchi U.R. bilan o'zaro kelishgan holda qarzdor farzandlari uchun ularni voyaga yetguniga qadarli to'lashi lozim bo'lgan 139.122.000 so'm aliment pullarini 12.250 AQSH dollari miqdorida undiruvchi U.R.ga tilxat asosida topshirdi va undiruvchining arizasiga asosan ijro ishi tamomlandi.

MIB Rishton tumani bo'limi

2023-02-16 11:44:55